



## XO'JALIK YURITUVCHI SUB'EKLARDA MAHSULOT ISHLAB CHIQARISH TANNARXINI PASAYTIRISH IMKONIYATLARI

*Sobirov Otabek Olimjonovich,*

*Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.*

*Buxgalteriya hisobi va audit kafedrasi,*

*Namangan muhandislik-tehnologiya instituti,*

*Namangan, O'zbekiston. Email: [oosobirov@gmail.com](mailto:oosobirov@gmail.com)*

*ORCID: 0000-0002-0415-0802*

### OPPORTUNITIES TO REDUCE THE COST OF PRODUCT PRODUCTION IN BUSINESS SUBJECTS

*Sobirov Otabek Olimjonovich,*

*Doctor of Philosophy (PhD) in economic sciences, associate professor.*

*Department of Accounting and Auditing,*

*Namangan Institute of Engineering and Technology,*

*Namangan, Uzbekistan. Email: [oosobirov@gmail.com](mailto:oosobirov@gmail.com)*

*ORCID: 0000-0002-0415-0802*

#### JEL Classification: M1, M4, M41

**Annotatsiya.** Bugungi kunda xo'jalik faoliyatini olib boruvchi sub'ektlar ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni sifatli va arzon bo'lishi ularni oldida turgan eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mahsulotni sifatli va arzon bo'lishi ko'p jihatdan ishlab chiqarishda foydalanilayotgan xom ashyolar va texnika va texnologiyalarga bog'liqdir. Mahsulotlarni arzon bo'lishi ko'p jixatdan tannarxni to'g'ri hisoblanishiga bevosita bog'liqdir. Buning uchun esa mahsulot tannarxini tashkil etadigan xarajatlarni doimiy nazorat qilib borish muhimdir.

Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotiga nazar soladigan bo'lsak, ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan korxonalar mahsulot tannarxini keltirib chiqaradigan xarajatlarga asosiy e'tiborni

Bugungi kunda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yilayotganda asosan import qilinayotgan xom-ashyo hisobiga mahsulot tayyorlansa, ushbu maxslot tannarxi nisbatan yuqori narxlarda tayyor

qaratadigan va yakunda mahsulot tannarxidagi chetlanishlar deyarli kuzatilmaydi. Shuningdek ishlab chiqarilgan mahsulotni sotilishi juda ham barqaror tendenstiyaga ega bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda mahsulot omborda sotilmay saqlanib qolmaydi, doimo haridoriga ega bo'ladi, bu tannarxni doimiy nazorati natijasi deb bemalol aytish mumkin.

Mazkur maqolada mahsulot ishlab chiqarish tannariga kiritiladigan xarajatlar va ularning turlari, ishlab chiqarishda mavjud resurslardan oqilona va samarali foydalanish, shuningdek mahsulotning tannarxiga ta'sir qiladigan ayrim muhim masalalarga atroflicha to'xtalib o'tilgan. Mahsulot ishlab chiqarishda tannarxni birmuncha arzonlashtirish masalalarini ham ko'rib chiqish muhimdir. bo'ladi[5]. Kelgusida aynan shu mahsulotni tarkibidagi xom-ashyolarni bosqichma-bosqich mahalliy xom-ashyolar hisobiga ishlab chiqarish va uni mahalliylashtirish mahsulot tannarxini birmuncha pasaytirish

imkoniyatini yaratadi. Hozirgi vaqtida bu eng dolzarb masalalardan biridir.

Maxalliylashtirish ishlarini amalga oshirish kelgusidagi boshqa muhim masalalarini amalga oshirish imkoniyatlarini yaratadi.

Maqolamizda ushbu jihatlardan tashqari, mahsulot tannarxini kal'kulyastiya qilishda zamonaviy innovastion usullarini qo'llagan xolda ishlab chiqariladigan mahsulotlarning tannarxini pasaytirish bo'yicha ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Abstract.** One of the most urgent issues facing the economic entities today is the quality and cheapness of the products they produce. The quality and cheapness of the product largely depends on the raw materials and techniques and technologies used in production. In many ways, the cheapness of the products directly depends on the correct calculation of the cost. For this, it is important to constantly control the costs that make up the cost of the product.

If we look at the economy of developed countries, manufacturing enterprises focus on the costs that cause the cost of production, and finally deviations in the cost of production are almost not observed. Also, the sale of manufactured products will have a very stable trend. In other words, the product does not remain unsold in the warehouse, it always has a buyer, it can be safely said that this is the result of constant cost control.

In this article, the costs included in the production of products and their types, the rational and efficient use of available resources in production, as well as some important issues that affect the cost of the product are discussed in detail. It is also important to consider the issues of reducing the cost of production. Today, when starting production, if a product is made mainly from imported raw materials, the cost of this

product will be relatively high [5]. In the future, it is possible to gradually reduce the cost of the product by gradually producing the raw materials of this product at the expense of local raw materials and its localization. Currently, this is one of the most pressing issues. Implementation of localization works creates opportunities for implementation of other important issues in the future.

In addition to these aspects, scientific suggestions and practical recommendations for reducing the cost of manufactured products using modern innovation methods have been developed in our article.

**Kalit so'zlar.** Mahsulot ishlab chiqarish, mahsulot tannarxi, moliviy xolat, mexnat unumdorligi, mahsulot turi, ishchi kuchi, strategik qarorlar, sotish bo'yicha xarajatlar, daromadlar, iqtisodiy o'sish, xo'jalik yurituvchi sub'ekt, mas'uliyat markazlari, daromad markazlari, investistiya.

**Keywords.** Product production, product cost, financial position, productivity, product type, workforce, strategic decisions, cost of sales, revenues, economic growth, business entity, responsibility centers, profit centers , investment.

**Kirish.** Mamlakatimizda so'ngi yillarda tadbirkorlik sohasiga katta e'tibor berilmoqda. Shuningdek, mahsulot ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik sub'ektlariga ko'plab imkoniyatlar va qulay muhit yaratilmoqda. Xususan, ishlab chiqarish dastgohlarini xorijdan sotib olib kelish, shuningdek ishlab chiqarishda foydalaniladigan xomashyolarni import qilinishidagi bojxona bojlari bo'yicha imktiyozlar qo'llanilmoqda. Albatta tadbirkorlik sub'ektlari uchun qo'llanilayotgan bunday imtiyozlar ishlab

chiqariladigan mahsulotning tannarxini pasaytirish imkoniyatini yaratadi.

Tannarxni arzon bo‘lishi mazkur ishlab chiqarilayotgan mahsulotni tezda sotilishi hamda ishlab chiqaruvchini moliyaviy barqarorligini ta’minalashga hizmat qiladi. Ushbu jihatlar tannarxni nazorat qilish naqadar muhim ekanligidan dalolat beradi.

Hozirgi vaqtida ishlab chiqarish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan xar bir korxona avvalo sarflanayotgan mablag‘larini sarflanish yo‘nalishlarini rejali tashkil etishi muhimdir. Mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini tahlil qilishda, birinchi navbatda, ishlab chiqarish hajmi o‘zgarishining jami xarajatlarga va mahsulot birligiga ta’sirini aniqlash lozim bo‘lib xisoblanadi. Ushbu xarakatlar asosan mavjud resurslardan oqilona foydalanish, mablag‘larni tejab sarflash bo‘yicha boshqaruv qarorlarini (strategik qarorlarni) tizimli ravishda qabul qilish va umuman xo‘jalik faoliyatini yurituvchi sub’ekt faoliyati samaradorligi xamda iqtisodiy jihatdan o‘sishi uchun juda xam kerakdir.

Ishlab chiqarishda xarajatlarni nazoratini qat’iy amalga oshirish xo‘jalik faoliyatini yurituvchi sub’ekt rahbariyati tomonidan ko‘zlangan asosiy maqsadlarga erishilishining garovi bo‘lib hizmat qiladi.

Ishlab chiqarish xarajatlarini tahlil qiladiga bo‘lsak, ular doimiy va o‘zgaruvchan xarajatlarga bo‘linadi. O‘zgaruvchan xarajatlar ishlab chiqarish faoliyati darajasiga (ishlab chiqarish hajmiga) to‘g‘ri proporstional ravishda o‘zgaradi. Bu shu bilan bog‘liqki, mahsulot birligi uchun o‘zgaruvchan xarajatlar (xom ashyo, materiallar, ishlab chiqarish xodimlarining ish haqi va h.k) doimiydir. Umumiyligi o‘zgaruvchan xarajatlar mahsulot hajmiga bevosita bog‘liq, bir mahsulot hajmiga to‘g‘ri keladigan o‘zgaruvchi xarajatlar esa doimiy hisoblanadi.

Doimiy xarajatlar ishlab chiqarishning turli xil masshtabi uchun ma’lum vaqt davri uchun o‘zgarmay qoladi. Lekin ishlab chiqarish masshtabi o‘zgarishi bilan mahsulot birligi uchun ular ulushi o‘zgaradi.

Ishlab chiqarish hajmi oshishi bilan doimiy xarajatlar so‘mmasi o‘zgarmaydi, lekin mahsulotning har bir birligi uchun xarajatlar qisqaradi. Amaliyotda doimiy xarajatlar har doim ham ishlab chiqarishning barcha darajalari uchun bir xil bo‘lavermaydi. Bir necha yillar bilan o‘lchanadigan solishtirma, uzoq vaqt davri uchun, barcha xarajatlar o‘zgaruvchan hisoblanadi. Shuningdek, faoliyat darajasini katta miqdorda kengayishi xarajatlarning barcha turkumlarini oshishiga olib keladi. Qisqa vaqt davri uchun xarajatlar o‘zgaruvchan yoki ishlab chiqarish darajasi o‘zgarishiga bog‘liq holda doimiy bo‘ladi. Qancha vaqt davri qisqa bo‘lsa, ma’lum bir xarajatlar doimiy bo‘lish ehtimoli katta.

**Material va metod.** Bugungi kunda mamlakatimizda xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda mahsulot ishlab chiqarish bilan bog‘liq jarayonlarda yuzaga keladigan xarajatlar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagagi 54-son Qarori bilan tasdiqlangan “Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarini shakllantirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomiga asosan tartibga solinadi.

Mamlakatimizda mahsulot ishlab chiqarish tannarxini xisoblashni takomillashtirish borasida ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan va olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlardan ko‘zlangan asosiy maqsad zamonaviy kal’kulyastiya usullarini aniqlash va bu orqali tannarxni pasaytirish hisoblanadi. Ma’lumki, iqtisodiyotda aniqlangan muammolarni hal etishgacqaratilgan chora-tadbirlarni

amaliyotda qo'llashga xuquqiy asos talab etiladi.

Xususan, mamlakatimizda sohani isloh etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldag'i PQ-4611-sonli "Moliyaviy hisobotning halqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori [1], Respublikamiz Prezidentining 2022-2026 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha Taraqqiyot strategiyasi qabul qilindi [2]. Mazkur qarorlarda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarni yanada takomillashtirish chora tadbirlari belgilab berilgan edi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsadlardan biri ishlab chiqarish faoliyatini rivojlantirish va xorijiy investistiya mablag'larini yurtimizga keng jalg etishdir.

Yuqorida takidlab o'tganimizdek, ishlab chiqarilgan mahsulot sifatlari va arzon bo'lishi muhimdir, zero bozorda mustahkam o'ringa ega bo'lish uchun mahsulot tannarxini doimo nazorat qilib borish orqali ortiqcha xarajatlarga yo'l qo'ymaslikni taqazo etadi. Buning uchun rivojlangan mamlakatlar tajribalarini atroflichha o'rganish va bu bo'yicha chuqur tadqiqotlar olib borish lozimdir. Bu borada xorijiy investorlarni ahamiyati juda yuqoridir. Investor o'z kapitali hisobiga eng zamonaviy texnologik asbob-uskunalarni olib kelishi ishlab chiqarishda samaradorlikka va mexnat unumdorligiga erishilishini ta'minlaydi, yakunda sifatlari va arzon mahsulotlar ishlab chiqarilishiga erishiladi [4].

Mahsulot tannarxi va xarajatlarini nazorat qilish va tannarx hisoblashni zamonaviy usullaridan foydalanish bo'yicha mamlakatimizning etakchi iqtisodchi olimlaridan A.Z.Avlokulov, A.A.Karimov, A.X.Pardayev,

M.Q.Pardayev,

N.B.Abdusalomova, O.O.Sobirov va boshqalarning ilmiy tadqiqotlari ahamiyatga molikdir. Olimlarimizning tadqiqotlarini tahlil etadigan bo'lsak ular tadqiqot ishida tizimli yondashuv, guruhlash, taqqoslama tahlil, induksiya, deduksiya, qiyosiy taqqoslash, kuzatuv, nazariy va amaliy o'rganish, monografik kuzatish, statistik tahlil, omilli tahlil, iqtisodiy-matematik hamda buxgalteriya hisobi usullaridan keng foydalanilgan va samarali natijalarga erishganlar [3].

**Natijalar.** Hozirgi vaqtida mahsulot tannarxini kal'kulyastiya qilishni zamonaviy usllaridan keng foydalanilmoqda. Bundan ko'zlangan asoyi maqsad esa tannarhni pasaytirishdir.

Biz tomonimizdan olib borgan tadqiqotlarimiz davomida mahsulot tannarxini hisoblash va nazorat qilishga qaratilgan va undagi muammolarni xal etishda tizimli ishlarni amalgalash oshirgan olimlarni ilmiy ishlarini o'rgandik va tahlil qildik va quyidagicha natijalarga erishdik:

1. Mahsulot tannarhi va undagi chetlanishlarni xo'jalik yurituvchi sub'ektlar mas'uliyat markazlarining o'zida alohida-alohida hisobga olish va bu bo'yicha mas'uliyat markazlari faoliyatini baholash;

Natijada xar bir mas'uliyat markazlari bo'yicha xarajatlarni hisobini yuritish va yakunda tannarxdagi ulushini tezkorlik bilan aniqlash va ushbu mas'uliyat markazi samaradorligini aniqlash imkoniyati yaratiladi.

2. Mahsulot ishlab chiqarishda bevosita mutaxassis-xodimlar faoliyatini mas'uliyat markazlari bo'yicha alohida baholash va mahsulot ishlab chiqarishda xodimni samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlash;

Natijada xar bir mutaxassis-xodimni mexnat unumdorligini mas'uliyat markazlarini o'zida aniqlash imkoniyati yaratiladi.

3. Tannarxni tashkil etuvchi xarajatlarni tizimli nazorat qilish va ularni nisbatan

arzonroq bo‘lgan alternativ variantlarini qidirib topish.

Natijada doimiy xarajatlarni ortib ketishini oldi olinadi va mahsulot tarkibidagi nisbatan qimmatroq narxdagi xom ashyo o‘rnini bosuvchi arzonroq bo‘lgan alternativ variantlarni topish imkoniyati yaratiladi.

**Munozara.** Bizning fikrimizcha, mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini nazorat qilish va tannarxni pasaytirish imkoniyatlari ko‘rib chiqish bugungi kundagi eng dolzarb masalalardan biridir. Bu esa o‘z navbatida ishlab chiqarilayotgan mahsulotning mijozlar uchun jozibadorligini oshirishni ta’minlaydi. Buning uchun esa quyidagilarga e’tibor qaratish lozimdir:

1. Ishlab chiqarish faoliyatini yanada rivojlantirishda xom ashyo materiallarni xorijdan import qilish o‘rniga xom ashyo resurslarni mahalliylashtirishga katta e’tibor berish;

2. Ishlab chiqarish faoliyatini yanada rivojlantirishda yuzaga keladigan moliyalashtirish bilan bog‘liq muammolarni xorijiy investisiya mablag‘larini ishlab chiqarish faoliyatiga keng jal etish va samaradorlikni oshirish orqali xal etish;

3. Bugungi kunda korxonalarda mahsulot ishlab chiqarishda ishtirok etadigan texnika va texnologiyalar nisbatan manaviy eskirgan, shuningdek katta xaajat hisobiga ish faoliyatini amalga oshiradi, bu esa ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxini qimmatlashishiga olib kelmoqda, korxonalarda mahsulot ishlab chiqarishda ishtirok etadigan texnika va texnologiyalarni zamonaviy, energiyatejamkor bir so‘z bilan aytganda kam xarajatli innovastion texnologiyalar bilan jihozlash mahsulot tannarxini pasaytirish imkoniyatlarini yaratadi.

Shu o‘rinda mamlakatimizda xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarni xorijdan ishlab chiqarish texnologiyalarini olib kelishlarida ko‘plab imtiyozlar berilayotganligini e’tirof

etish maqsadga muvofiqdir.

Yuqoridaagi masalalarni tizmli xal etayotgan korxonalar faoliyati davomida yuqori natijalarga erishmoqdalar, lekin bugungi kunda yaratilayotgan imkoniyatlardan to‘g‘ri foydalanmayotgan korxonalar ham ko‘plab topiladi va bunday korxonalarini bozorda barkaror o‘ringa ega bo‘lishi juda qiyin kechadi. Biz takidlab o‘tgan masalalarni tizimli ravishda hal etish strategik maqsadlarga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Xulosa.** Bildirilgan fikrmulohazalarimizdan kelib chiqgan holda mahsulot tannarxini pasaytirish bo‘yicha quyidagi vazifalarni amalga oshirishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

- mahsulot tannarxini pasayishiga salbiy ta’sir qiladigan omillarni oldindan proqnoz qilish va uni barataraf etish choratadbirlarini ishlab chiqish;

- ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tarkibidagi xom ashyolarni mahalliylashtirish orqali mahsulot tannarxini pasaytirish;

- mehnat resurslaridan samarali foydalanish tizimini ishlab chiqish orqali mahsulot sifatini oshirish va tannarxni pasaytirish imkoniyatlari yaratiladi;

- ishlab chiqarishga zamonaviy innovastion texnologiyalarni jalb etish orqali sifatli va arzon mahsulot ishlab chiqarishga erishiladi.

Iqtisodiyotning har qanday sohasini rivojlantirish uchun aniq va ishonchli ma’lumotlar bo‘lishi lozim, chunki bu ma’lumotlar asosida korxona holatiga baho berish va to‘g‘ri xulosalar qabul qilish mumkin bo‘ladi. Mahsulot ishlab chiqarishda xarajatlarni to‘g‘ri taqsimlash va ularni sarflanishi ustidan nazoratni olib borish, tahlil qilish hamda hisobini yuritish muhim ahamiyat kasb etadi.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldag'i PQ-4611-sonli "Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi Qarori. Toshkent. 2020.

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. 2021 yil.

3. Sobirov Otabek Olimjonovich. Boshqaruv hisobi: O'quv qo'llanma / «Usmon Nosir Media» nashriyoti. UO'K: 65+657, KBK 65.052.2,S-70, ISBN: 978-9910 -743-15-3. Namangan. 2023. 247 b.

4. Sobirov Otabek Olimjonovich. The Cost Of Forming A Management Account In Business Entities. Journal of Pharmaceutical Negative Results. DOI: 10.47750/pnr. 2022. 13.S07-537. 4295-4298. <https://www.scopus.com/sourceid/21100216519>

5. Sobirov O. Cost Included in Production and Factors Affecting Them. AMERICAN Journal of Public Diplomacy and International Studies. Volume 01, Issue 07, 2023 ISSN (E): 2993-2157. America. 2023.125-127 p.  
<http://prnjournal.us/index.php/AJPDIS/article/view/690>

6. Sobirov O. Product Development Cost Factors Affecting Reduction. AMERICAN Journal of Public Diplomacy and International Studies. Volume 01, Issue 07, 2023 ISSN (E): 2993-2157. America. 2023. 13-14 p.  
<http://prnjournal.us/index.php/AJPDIS/article/view/690>

7. Sobirov O.O. Boshqaruv hisobining mohiyati va uni tashkil etishda xarakatlarning o'rni. Scientific Journal of "Internatsional Finance & Accounting" -TMI. Toshkent. 2022 yil avgust. Issue 4. ISSN:2181-1016.  
<http://prnjournal.us/index.php/AJPDIS/article/view/690>

8. O.O.Sobirov., M.Karimova. "Problems of Effective use of Key Equipment in Enterprises". "International journal of Formal Education". Volume: 2 Issue: 6 | Jun – 2023 ISSN: 2720-6874.

9. Otobek Olimjonovich Sobirov. Improment of management accounting methodology in economic entities. Scientific Journal of "International Finance & Accounting" TMI. Issue 2, April 2023. ISSN: 2181-1016

10. Sobirov O.O. Improvement of management accounting in economic entities. - Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) Dissertation on Economic Sciences. Tashkent. TMI. 2022 year.

11. Sobirov O.O., Uzoqboyev R. "Important issues of ensuring the financial stability of small business and subjects". "International journal of Formal Education". Volume: 2 Issue: 6 | Jun – 2023 ISSN: 2720-6874.

12. O.O.Sobirov., J.Alibeyev. "Issues Ensuring the Profitability of Enterprises". "International journal of Formal Education". Volume: 2 Issue: 6 | Jun – 2023 ISSN: 2720-6874.

13. Sobirov O.O. «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda boshqaruv hisobini takomillashtirish yo'nalishlari». Ilmiy monografiya. Namangan-2023 yil. UO'K: 657 (075.8). KBK: 65.052.2. ISBN:978-9943-5945-8-6.